



MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA METODIK O'YINLARNING AHAMIYATI

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi
Yuldashev Og'abek Komiljon o'g'li*

E-mail: Ogabek9297@gmail.com

Telefon: +998972309297

*Namangn Davlat Pedagogika Institutining
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Azimov Samandar Murodjon o'g'li*

E-mail: azimovsamandar196@gmail.com

Phone number: +998942422220

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ingliz tilini maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi o'quvchilarga o'rgatishda, dars jarayonida, o'yin metodlaridan foydalangan holda dars o'tishning samarali usullari tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'rgatishda kichik yosh davridagi bolalarga metodik o'yin usullarining ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *usul, metod, ko'nikma, jarayon, o'yin, faoliyat, samara.*

Аннотация: В данной статье анализируются эффективные методы проведения уроков английского языка для дошкольников и школьников с использованием игровых методов в учебном процессе. Представлена информация о значении методических игровых приемов при обучении английскому языку детей младшего возраста.

Ключевые слова: *метод, приём, навык, процесс, игра, деятельность, результат.*



Annotation: This article analyzes effective methods of teaching English to preschool and school students using game methods during lessons. It provides information about the importance of methodological game techniques for teaching English to young children.

Keywords: *method, technique, skill, process, game, activity, result.*

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab kundan-kunga oshmoqda va yangi metodik usul, ko'rsatmalar, xorijiy tillarni oson o'rgatishga doir metodikalar ustida izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga nafaqat xorijiy tillarni kata yoshdagilar balki maktabgacha va maktab yoshidagilar ham o'rganmoqdalar. Kichik yosh davridagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish birmuncha qiyin kechadi. Ularni o'qitishga ishtiyoqlarini oshirish maqsadida o'yinlardan foydalangan holda o'rgatish jarayonlari samarali hamda ta'sir natijasi yuqorisi sanaladi.

O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini tortib kelgan faoliyat. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Zero, o'yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o'yinini bunday tushunish birinchi marta K.D.Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan. U o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotdan olgan taasurotlari bilan belgilanib, ular shaxsi shakllanishiga ta'sir etadi, deb yozadi.^[1]

Dars jarayonlarini samarali tashkil etish uchun avvalambor o'quvchilarning diqqat e'tiborini jalb qilish zarur. Bu borada, o'yinlar yordamida dars usuli juda ham foydali. Misol uchun:

Ingiliz tilini o'rganishda qo'llaniladigan o'yinlar

1. Lug'at boyligini oshirish uchun o'yinlar

¹ Turakulova, F. A. Maktab amaliyotida ingliz tilini o'rgatishda o'yinlardan foydalanish // Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning global masalalari: muammo va tadqiqot. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qo'qon: Qo'qon davlat pedagogika instituti, 2023. – B. 200–202.



Memory game (Xotira kartalari) – Soʻzlar va rasmlar tushirilgan kartalarni moslashtirish orqali oʻyin oʻtkaziladi.

Bingo – Oʻquvchilarga soʻzlar yoki rasmlar tarqatiladi, oʻqituvchi soʻzlarni aytganda bolalar belgilaydi.

Word Hunt (Soʻz qidirish) – Dorskaga yoki qogʻozga yashirilgan soʻzlarni topish.

Flashcard Games – Rasmlar tushirilgan kartochkalarni koʻrsatib, bolalar soʻzni aytadi.

2. Tinglab tushunishni rivojlantiruvchi oʻyinlar

Simon Says – Oʻqituvchi “Simon says...” deb aytgan buyruqlarni bajarish, boshqa hollarda bajarmaslik.

What’s the Sound? – Turli tovushlarni eshittirib, bolalar ularni ingliz tilida nomlashadi.

Guess the Animal – Oʻqituvchi hayvonning ovozi yoki tavsifini aytadi, bolalar topadi.

3. Nutq va muloqotni rivojlantiruvchi oʻyinlar

Role Play (Rollarni ijro etish) – “Doʻkonda xarid qilish”, “Mehmon kutish” kabi vaziyatlarda dialog qilish.

Charades (Mimika oʻyini) – Bir bola soʻzni ishoralar bilan koʻrsatadi, boshqalar taxmin qiladi.

Find Someone Who... – Savollar orqali sinfdoshidan maʼlum xususiyat yoki odatni topish (“Find someone who likes apples”).

4. Grammatikani oʻrgatishga qaratilgan oʻyinlar

Last Man Standing – Savollarga javob bergan oʻquvchilar oʻyinda qoladi, bilmaganlar chiqib ketadi.

Correct the Mistake – Oʻqituvchi notoʻgʻri gap aytadi, oʻquvchilar uni toʻgʻrilaydi.



Sentence Building – Kartochkalardan gap tuzish (ot, fe'l, sifatlar yordamida).

5. Yozuv ko'nikmalarini mustahkamlovchi o'yinlar

Jumbled Letters (Aralashtirilgan harflar) – Harflardan so'z yasash.

Word Snake – Bir so'zning oxirgi harfi bilan yangi so'z boshlash.

Hangman – So'zdagi harflarni topish orqali “odamni qutqarish” o'yini.

Ingliz tilini o'rganishda o'yinlarning ahamiyati. Maktabgacha va maktab ta'limi yoshidagi bolalar uchun ingliz tilini o'rgatishda o'yinlar muhim metodik vosita hisoblanadi. O'yin jarayonida bola yangi so'zlarni yod oladi, talaffuzni mashq qiladi, shuningdek, nutqiy muloqotga kirishishni o'rganadi. Pedagogik tadqiqotlarda o'yin faoliyati orqali o'qitish bolaning qiziqishini oshirishi, mustaqil fikrlashni rivojlantirishi va chet tilini o'zlashtirish jarayonini yengillashtirishi ta'kidlanadi.

O'yinlar turli ko'rinishda tashkil etilishi mumkin: rolly o'yinlar, mantiqiy-topishmoq o'yinlari, stol usti va interaktiv o'yinlar, shuningdek, raqamli texnologiyalarga asoslangan multimediali o'yinlar. Masalan, “Kim tezroq?”, “Topib ayt!”, “Rolga kirish” kabi oddiy o'yinlar orqali bolalar yangi lug'at boyligini amalda qo'llaydi. Bu esa ularning o'rgangan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'yinlarning didaktik ahamiyati shundaki, ular bolalarni ijtimoiy muloqotga tayyorlaydi, jamoaviy ishlash ko'nikmasini shakllantiradi va o'z fikrini erkin bayon etishga yordam beradi. O'yin asosida berilgan topshiriqlar bolaning diqqatini jamlash, eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish hamda ijodkorlik salohiyatini yuksaltiradi.

Ingliz tili ta'limida o'yinlarning tarixi

Chet tilini o'qitishda o'yinlardan foydalanish g'oyasi qadimdan mavjud bo'lsa-da, ilmiy-metodik yondashuv sifatida XX asrning ikkinchi yarmida keng rivojlana boshladi. 1960–1970-yillarda kommunikativ metodikalar paydo bo'lishi bilan o'yinlar til o'rgatishning muhim elementi sifatida qaralgan. Psixolog J. Piaget va L. S. Vygotskiylarning o'yin faoliyati haqidagi nazariyalari asosida bolalarning bilish



jarayoni o'yinga bog'liq holda tezroq rivojlanishi ta'kidlangan. Shundan keyin o'yinlar didaktik vosita sifatida ta'lim tizimida mustahkam o'rin egalladi.

XXI asrda esa raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida o'yinlar shakli ham yangilandi. Endi nafaqat an'anaviy kartochka, rolly o'yinlar, balki interaktiv onlayn o'yinlar ham keng qo'llanilmoqda. Bu esa bolalarda ingliz tiliga nisbatan qiziqishni oshirdi va dars jarayonini samarali tashkil etishga imkon berdi.

Ingliz tili ta'limida o'yinlarning samaradorligi.

Motivatsiya: O'yin jarayonida o'quvchi tilni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qiladi. Bu esa ularning ichki rag'batini oshiradi.

Kommunikativ ko'nikmalar: O'yinlar orqali bola suhbat qurishni, savol berish va javob qaytarishni, o'z fikrini ifodalashni o'rganadi.

Lug'at boyligi: So'z va iboralarni takrorlash o'yin shaklida yengilroq va tezroq amalga oshadi.

Psixologik ijobiy ta'sir: O'yin bolaning ishonchini mustahkamlaydi, darsdagi qo'rquv va asabiylikni kamaytiradi.

Jamoadam ishlash: O'yinlar o'quvchilarda hamkorlik, o'zaro yordam va raqobatni sog'lom shaklda rivojlantiradi.

Ijodkorlik: Rolly o'yinlar va ijodiy topshiriqlar orqali bola nutqiy va tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi.

Yoshga qarab o'yinlardan foydalanish tavsiyalari.

Maktabgacha yosh (3–6 yosh): qisqa, ko'proq harakatga asoslangan o'yinlar (masalan, "Simon says", qo'shiq asosidagi o'yinlar). Bunda ko'rish va eshitish xotirasini rivojlantiruvchi vizual vositalardan keng foydalanish lozim.

Boshlang'ich sinflar (7–10 yosh): sodda lug'at va jummalarni mustahkamlashga xizmat qiladigan o'yinlar (kartochka o'yinlari, "Memory game", "So'z zanjiri"). Jamoaviy topshiriqlar orqali hamkorlikni kuchaytirish muhim.



O'rta maktab yoshi (11–14 yosh): mantiqiy va rolly o'yinlar (muloqotli vaziyatlar, "Find someone who...", sahnalashtirish). Bu yoshda ijodkorlikni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Yuqori sinflar (15 yosh va undan katta): interaktiv texnologiyalarga asoslangan onlayn o'yinlar, viktorinalar va muammoli vaziyatlarni yechishga qaratilgan mashg'ulotlar samarali bo'ladi.

Chet tili ta'limida o'yin metodlarining qo'llanishi nafaqat didaktik jarayonni jonlantiradi, balki o'quvchilarning psixologik va lingvistik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida o'yin elementlaridan foydalanish til materialining o'zlashtirilish darajasini oshiradi. Jalolovning fikricha, o'yin mashg'ulotlari tilni o'rgatishda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularni muloqotga jalb etishning samarali vositasi hisoblanadi [2].

O'yin faoliyati dars jarayonida motivatsiya omilini kuchaytiradi. Chunki o'yin davomida o'quvchilar shaxsiy tajribaga asoslangan holda yangi so'z va iboralarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada, ularning lug'at boyligi kengayadi, grammatik shakllardan foydalanish malakasi shakllanadi va og'zaki nutq tezligi ortadi. Bu jihatlar tilni kommunikativ maqsadlarda samarali qo'llashni kafolatlaydi. Shuningdek, Jalolov o'yin metodlarining ijtimoiy-psixologik ahamiyatini ham qayd etadi. Unga ko'ra, o'yin jarayonida o'quvchilar bir-biri bilan hamkorlikka kirishadi, o'zaro raqobat va musobaqalashuv orqali bilimlarini mustahkamlaydi, hamda ijtimoiy muloqot madaniyatini rivojlantiradilar. Shu bois o'yin texnologiyalarini chet tili darslarida qo'llash o'quvchilarda nafaqat til ko'nikmalarini, balki ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi [3].

² Джалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 250 б.

³ Джалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 50 б.



Chet tili o'qitishda o'yin metodlarining o'rni ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xidirov [4] o'z ishlarida innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan o'yin metodlari ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Ismoilova [5] esa maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini o'zlashtirish jarayonida qo'shiqlar, rolly o'yinlar va vizual materiallardan foydalanishning ijobiy ta'sirini ko'rsatib bergan. Shuningdek, Rasulova [6] boshlang'ich ta'limda o'yinli mashg'ulotlar o'quvchilarni muloqotga jalb etishda, ularning psixologik faolligini oshirishda samarali vosita ekanligini ilmiy asoslab bergan.

Xorijiy tadqiqotchilar ham o'yin metodlarining samaradorligini keng yoritib kelmoqda. Wright, Betteridge va Buckby [7] o'zlarining Games for Language Learning asarida o'yinlar o'quvchilar motivatsiyasini kuchaytirishi va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishini qayd etgan. Hadfield [8] o'z kitobida boshlang'ich hamda o'rta darajadagi o'quvchilar uchun turli kommunikativ o'yinlar to'plamini taklif qilgan. Lee [9] esa o'yinlar orqali til o'rgatishning didaktik va psixologik asoslarini batafsil tahlil qilib, ularni samarali o'quv faoliyati sifatida ta'riflagan.

Mazkur ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, o'yin metodlari til o'rgatish jarayonida nafaqat qiziqish uyg'otadi, balki o'quvchilarning tilni tez va samarali o'zlashtirishini ham ta'minlaydi. Shu boisdan, chet tili ta'limida o'yinli mashg'ulotlardan foydalanish dolzarb metodik yondashuvlardan biri hisoblanadi.

⁴ Хидиров А. А. Инновацион технологиялар ва ўйин методларини чет тили ўқитишда қўллаш // Педагогика фанлари журнали. – Тошкент, 2020. – №3. – Б. 112–118.

⁵ Исmoilova Д. Мактабгача ёшдаги болаларга инглиз тилини ўргатишда ўйинларнинг аҳамияти // Мактабгача таълим журнали. – Тошкент, 2019. – №2. – Б. 67–72.

⁶ Расулoва М. Бошланғич таълимда ўйинли машғулотларнинг самарадорлиги // Boshlang'ich ta'lim va tarbiya. – Самарқанд, 2021. – №4. – Б. 88–93.

⁷ Wright A., Betteridge D., Buckby M. Games for Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 180 p.

⁸ Hadfield J. Elementary Communication Games. – London: Longman, 1999. – 128 p

⁹ Lee W. R. Language Teaching Games and Contests. – Oxford: Oxford University Press, 1979. – 150 p.



REFERENCE

1. Turakulova, F. A. Maktab amaliyotida ingliz tilini o'rgatishda o'yinlardan foydalanish // Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning global masalalari: muammo va tadqiqot. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qo'qon: Qo'qon davlat pedagogika instituti, 2023. – B. 200–202.
2. Джалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 250 б.
3. Джалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 50 б.
4. Хидиров А. А. Инновацион технологиялар ва ўйин методларини чет тили ўқитишда қўллаш // Педагогика фанлари журнали. – Тошкент, 2020. – №3. – Б. 112–118.
5. Исмоилова Д. Мактабгача ёшдаги болаларга инглиз тилини ўргатишда ўйинларнинг аҳамияти // Мактабгача таълим журнали. – Тошкент, 2019. – №2. – Б. 67–72.
6. Расулова М. Бошланғич таълимда ўйинли машғулотларнинг самарадорлиги // Boshlang'ich ta'lim va tarbiya. – Самарқанд, 2021. – №4. – Б. 88–93.
7. Wright A., Betteridge D., Buckby M. Games for Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 180 p.
8. Hadfield J. Elementary Communication Games. – London: Longman, 1999. – 128 p.
9. Lee W. R. Language Teaching Games and Contests. – Oxford: Oxford University Press, 1979. – 150 p.
10. Azimov S. M. O'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o'qituvchining psixologik bilimi // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 45–52.



11. Azimov S. M., Maxammadaliyeva S. A. Modernizatsiya davrida o'rta ta'lim o'quvchilari uchun ingliz tili o'qitish usullari // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 120–127.

12. Azimov S. M., Darvishaliyeva O'. A. Yangi til o'rganish qiyinchiliklari va yechimlari // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 235–241.

13. Azimov S. M. The place and significance of the English language worldwide // International Journal of Scientific Researchers. – 2024. – Vol. 5, Issue 2. – P. 31–35.

14. Komiljon o'g, Y. O. A. (2025). WAYS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRE-SCHOOL CHILDREN. Ustozlar uchun, 74(2), 193-194.